



NOGIRONLIGI BOR SHAXSLAR BILAN ISHLASHDA AXLOQIY ME'YORLARNING

Madaminova Kamola Sirojiddin qizi

FarDU Ijtimoiy ish kafedrası magistranti

+998 (33) 050 10 05 (tg: @kamolamadaminovaa)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15259608>


Annotatsiya: Mazkur maqolada nogironligi bor shaxslar bilan ishlashda axloqiy me'yorlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Axloqiy tamoyillar nogironligi bor shaxslarning huquqlarini hurmat qilish, kamsitishning oldini olish va jamiyatga integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida xalqaro va milliy qonunchilik, falsafiy va ijtimoiy yondashuvlar hamda ijtimoiy ish xodimining bu jarayondagi roli yoritiladi. Shuningdek, nogironligi bor shaxslarga nisbatan hurmat, adolat, mustaqillik va inklyuzivlik tamoyillari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Nogironligi bor shaxslar, axloqiy me'yorlar, huquqiy asoslar, ijtimoiy ish, diskriminatsiya, inklyuzivlik, inson huquqlari, adolat, mustaqillik, identifikatsiya, jamiyatga integratsiya.

Jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri inson huquqlarining hurmat qilinishi va barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlarning yaratilishidir. Nogironligi bor shaxslar jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, ularning huquqlarini ta'minlash nafaqat huquqiy, balki axloqiy majburiyat hamdir. Axloqiy me'yorlar nogironligi bor shaxslarga inson sifatida to'laqonli yondashish, ularni kamsitishdan saqlanish va teng huquqli sharoit yaratish tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Bu masala xalqaro va milliy qonunchilikda mustahkamlangan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi nogironligi bor insonlarning jamiyatda teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashni talab qiladi. Ushbu maqola nogironligi bor shaxslar bilan ishlashda axloqiy me'yorlarning ahamiyati, ularning huquqiy asoslari va ijtimoiy ish xodimining burchlarini yoritishga qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 57-moddasida jamiyatda har bir inson, jumladan, nogironligi bor shaxslar ham davlat himoyasida bo'lishi ta'kidlangan. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun nogironligi bor shaxslarning qadr-qimmati va huquqlarini hurmat qilishni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu qonunga ko'ra, nogironligi bor shaxslarning jamiyatdagi faoliyati cheklanmasligi va ular bilan inson qadr-qimmati asosida muomala qilinishi kerak.






Biroq, huquqiy kafolatlarning o'zi yetarli emas, balki ijtimoiy munosabatlarni inklyuziv va axloqiy asosda shakllantirish ham muhimdir. Shuning uchun ijtimoiy ish xodimlari va jamiyatning barcha qatlamlari nogironligi bor shaxslarning huquqlarini ta'minlashda axloqiy tamoyillarga amal qilishi lozim.

Nogironligi bor shaxslar bilan munosabatda quyidagi etik qoidalar muhim o'rin tutadi. Hurmat va tenglik – nogironligi bor shaxslarni mustaqil va jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida qabul qilish. Immanuil Kantning deontologik etikasi bo'yicha inson hech qachon vosita sifatida ko'rilmagligi kerak. Nogironligi bor shaxslar ham jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida e'tirof etilishi lozim. BMT Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi ham bu tamoyilni tasdiqlaydi. Misol uchun, O'zbekistonda davlat xizmatlaridan foydalanish jarayonida nogironligi bor shaxslarga qulay muhit yaratish masalasi ko'tarilgan. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida nogironligi bor shaxslarga nisbatan hurmat va kamsitishning oldini olish majburiyati belgilangan.

Mehribonlik va g'amxo'rlik – nogironligi bor shaxslarning hissiy va jismoniy ehtiyojlarini inobatga olish.

Adolat va inklyuziya – nogironligi bor shaxslarning ijtimoiy hayotda to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash. Jon Rolsning adolat nazariyasi bo'yicha jamiyat adolatlilik tamoyillari asosida tashkil etilishi kerak. Michel Foucault esa jamiyatning nogironligi bor insonlarga nisbatan haddan tashqari homiylik qilishini tanqid qilib, ularning mustaqil qaror qabul qilish huquqini hurmat qilish lozimligini aytgan. Nogironligi bor shaxslarga adolatli munosabatda bo'lish quyidagilarni talab qiladi: jamoat joylari, ta'lim va ish sharoitlari nogironligi bor shaxslar uchun moslashtirilishi kerak. Ishga joylashish jarayonida teng imkoniyatlar yaratilishi muhim. Ta'lim tizimi inklyuziv bo'lishi kerak.

Shaxsiylik va mustaqillikni qo'llab-quvvatlash – nogironligi bor shaxslarga haddan tashqari himoyachilik qilmasdan, ularning mustaqilligini oshirish va nogironligi bor shaxslarning mustaqilligini qo'llab-quvvatlash zarur. Michel Foucault ta'kidlaganidek, haddan tashqari nazorat va himoyalash ularning ijtimoiy faolligini cheklaydi. Shu sababli, nogironligi bor shaxslarga o'zini boshqarish imkoniyatlari berilishi lozim. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni 18-moddasiga ko'ra, davlat nogironligi bor shaxslarning mustaqil yashashini qo'llab-quvvatlashi shart.





To'g'ri muloqot va axloqiy nutq me'yorlariga amal qilish ham nogironligi bor shaxslar bilan ishlashda muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar to'g'risida"gi Qonuni axborot yetkazishda hurmat va kamsitishlardan holi til ishlatishni talab qiladi. BMTning Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi ham nogironligi bor insonlarga hurmat bilan muomala qilishni ta'kidlaydi. Sapir-Whorf gipotezasiga ko'ra, til inson tafakkuri va ijtimoiy munosabatlarini shakllantiradi, shuning uchun nogironlik bo'yicha ishlatiladigan til neytral va hurmatli bo'lishi lozim. Pierre Bourdieu esa nutq va diskurs jamiyatda qudrat munosabatlarini shakllantirishini aytib, nogironligi bor shaxslarni stigmatizatsiyadan himoya qilish zarurligini ta'kidlagan.


O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi nogironligi bor shaxslarning ish bilan ta'minlanishini huquqiy kafolatlaydi va korxonalariga nogironligi bor shaxslarni ishga qabul qilish kvotalarini belgilaydi. Ammo ish beruvchilarning ushbu huquqiy me'yorlarga rioya qilishida axloqiy mas'uliyat ham katta ahamiyatga ega. Jamoat joylarida nogironligi bor insonlarning harakatlanishiga qulay sharoitlar yaratish davlat va jamiyat zimmasidagi axloqiy hamda huquqiy majburiyatlardan biridir.

Ijtimoiy ish xodimi nogironligi bor shaxslarning huquqlarini ta'minlashda vositachi bo'lib, ularning jamiyatda inklyuziv ishtirok etishiga ko'maklashadi. Ijtimoiy sh xodimining asosiy majburiyatlari nogironligi bor insonlarning qonuniy huquqlarini kafolatlash va ijtimoiy himoyani amalga oshirish, inklyuziyani rag'batlantirish orqali nogironligi bor shaxslarning ta'lim, mehnat va ijtimoiy hayotda ishtirokini kengaytirish, shaxsiy mustaqillikni rivojlantirish nogironligi bor insonlarni jamiyatga moslashtirish va ularga o'z hayotlarini boshqarish imkoniyatini berish kabilardir.

Ijtimoiy ish xodimi quyidagi axloqiy me'yorlarga amal qilishi lozim:

- Konfidentsiallik – nogironligi bor shaxslar haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik.
- Beg'araz xizmat ko'rsatish – ijtimoiy ish xodimi shaxsiy manfaatlardan voz kechgan holda ishlashi lozim.
- Hurmat va e'tibor – nogironligi bor shaxslarning shaxsiyati va qadriyatlariga hurmat bilan yondashish. Ijtimoiy ish xodimi jamiyatda nogironlik masalalariga nisbatan inklyuziv qarashlarni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Nogironligi bor shaxslar bilan muloqot qilayotganda kamsitmaydigan tildan foydalanish muhimdir. Nogironligi bor shaxslarga nisbatan ishlatiladigan so'z va






iboralar ba'zan bilib yoki bilmasdan kamsituvchi bo'lishi mumkin. Buning oldini olish uchun stereotiplardan qochish masalan, nogironligi bor shaxslarni doimiy ravishda "yordamga muhtoj" yoki "baxtsiz" deb tasvirlash noto'g'ri. Imkoniyatga urg'u berish – nogironligi bor shaxslarning qobiliyatlari va jamiyatga qo'shgan hissasi ta'kidlanishi lozim. Nogironligi bor shaxslarning o'z fikrlarini inobatga olish - qanday atamalarni afzal ko'rishlari bo'yicha ularning o'zlaridan so'rash muhim. Michael Oliver o'zining "Nogironlikni ijtimoiy modeli" nazariyasida til nogironlikni qanday idrok qilishimizga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Susan Wendell nogironlik bilan bog'liq tildan noto'g'ri foydalanish nogironligi bor shaxslarning ijtimoiy hayotga integratsiyasiga to'sqinlik qilishi mumkinligini qayd etadi.

Kamsitmaydigan til asosiy ikki tamoyilga tayanadi: Shaxsga yo'naltirilgan til (Person-first language) – insonni nogironligidan ustun qo'yish. Masalan, "nogiron" so'zi o'rniga "nogironligi bor shaxs" iborasidan foydalanish tavsiya etiladi. Identifikatsiyaga asoslangan til (Identity-first language) – ayrim nogironligi bor shaxslar o'z holatini identifikatsiya vositasi sifatida qabul qilishadi. Masalan, ko'r yoki kar shaxslar o'zlarini "ko'r odam" yoki "kar odam" deb atashni afzal ko'rishlari mumkin. Shuning uchun nogironligi bor shaxslarga nisbatan "ko'r, soqov, kar" kabi so'zlar o'rniga "Ko'rishda nuqsoni bor, eshitish yoki gapirish qobiliyati cheklangan shaxs" degan so'zlarni ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, nogironligi bor shaxslar bilan ishlashda axloqiy me'yorlarga rioya qilish ularning jamiyatda to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Axloqiy tamoyillar inson huquqlarini hurmat qilish, kamsitishning oldini olish, inklyuzivlikni rivojlantirish va adolatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Xalqaro va milliy qonunchilikda nogironligi bor shaxslarning huquqlari mustahkamlangan bo'lsa-da, amaliyotda ularning hayot sifatini oshirishda axloqiy yondashuv muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy ish xodimlari nogironligi bor shaxslarning jamiyatga integratsiyasida vositachi bo'lib, ularning mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, teng imkoniyatlarni yaratish va inklyuzivlikni targ'ib qilishda axloqiy me'yorlarga qat'iy amal qilishi lozim. Hurmat, mehribonlik, adolat, shaxsiylik va mustaqillik kabi tamoyillar nogironligi bor shaxslarning huquqlarini ta'minlashda asosiy yo'nalishlar hisoblanadi. Shuningdek, nogironligi bor shaxslarga nisbatan kamsitmaydigan va hurmatli tildan foydalanish, ularning hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini inobatga olish, jamiyatda stereotiplarni yo'qotish ham muhimdir. Zero, nogironligi bor shaxslarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi nafaqat huquqiy, balki axloqiy





majburiyat hamdir. Shu sababli, barcha sohalarda nogironligi bor shaxslarning huquqlarini ta'minlash va ularga nisbatan hurmatli munosabatni shakllantirish jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nogironlar huquqlari to'g'risida konvensiya, 2006 y.
2. <https://lex.uz/docs/-6445145> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023
3. <https://lex.uz/acts/-5049511> O'zbekiston Respublkasi Qonuni Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida
4. Nussbaum M.C. *Frontiers of Justice: Disability, Nationality, Species, Membership.* Harvard University Press. 2006
5. Kant, I. *Groundwork of the Metaphysics of Morals.* Riga: Johann Friedrich Hartknoch. 1785
6. Noddings, N. *Caring: A Feminine Approach to Ethics and Moral Education.* Berkeley: University of California Press.1984
7. Sen, A. *Development as Freedom.* Oxford: Oxford University Press. 1999
8. Foucault, M. *Discipline and Punish: The Birth of the Prison.* New York: Pantheon Books. 1975
9. <https://lex.uz/ru/docs/-6257288> O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi
10. <https://lex.uz/docs/-5013007> O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni
11. Whorf, B. L. *Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf.* Cambridge, MA: MIT Press.1956
12. Bourdieu, P. *Language and Symbolic Power.* Cambridge, MA: Harvard University Press.1991
13. Goffman, E. *Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity.* Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.1963
14. Florida, R. *The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure, Community, and Everyday Life.* New York: Basic Books.2002
15. Banks, S. *Ethics and Values in Social Work.* Basingstoke: Palgrave Macmillan.2012
16. Oliver, M. *The Politics of Disablement.* Basingstoke: Macmillan Education.1990
17. Wendell, S. *The Rejected Body: Feminist Philosophical Reflections on Disability.* New York: Routledge.1996

